

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"

rektor

Sh. Sironiddinov

2019__ yil " 1 " 07

"KELISHILDI"

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

2019__ yil " 4 " 10

Ro'yxatga olindi: № MD-5A111201-1.02

2019__ yil " 17 " 08

MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi: 110000 – Pedagogika
Mutaxassislik: 5A111201 – O'zbek tili va adabiyoti

Toshkent – 2019

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2019-yil 17.08 dagi "4"-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 4.10 dagi 892 - sonli buyrug'ining 2 -ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Zulxumor Mirzayeva – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti "O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi" kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori

Iroda Azimova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti "O'zbek tilini va adabiyotini o'qitish metodikasi" kafedrasi dots. v. b., filologiya fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

M. Qo'chqorova O'zRFA., O'zbek tili va adabiyoti, folklori instituti katta ilmiy xodimi, f.f.n.

A.Sobirov – Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU professori

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2019-yil 1.07 dagi 11-sonli bayonnomasi)

K/m Abdullayeva M. O'zbek
A. P. Sobirov

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Bugungi kunda yosh avlodni ma'naviy-intellektual tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy, an'analari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni amaliyotga joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, fan bo'lajak oily va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida o'zbek tili va adabiyoti fanidan dars beradigan bo'lg'usi o'qituvchilarining kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishga, bugungi kunda jahon adabiy ta'limida yuz berayotgan, o'qitish bilan bog'liq yangi jarayonlardan magistrnlarni xabardor qilish, ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, adabiy ta'limdagi jarayonlarning tanqidiy tahlilini yaratish bilan bog'liq ko'nikmalarini rivojlantirish ko'zda tutilgan.

“Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi” fani mutaxassis fanlari blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 2 kurs magistrnariga o'qitilishi maqsadga muvofiq. Kurs adabiy ta'limdagi yangi tadqiqotlarni yo'lga qo'yish uchun puxta nazariy asos yaratish; nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarni tashkil qila olish ko'nikma-malakalari va kasbiy kompetentligini shakllantirish hamda ularni ilg'or xorijiy tajribalar bilan tanishtirish imkonini yaratadi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

“Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi” fanini o'qitishdan *muqsad*–ta'limning turli bosqichlarida adabiyot turkumidagi fanlar mohiyatini hamda ularni o'qitishdagi o'ziga xosliklarni o'rganishdan iborat. Fan til va adabiyot fanlarini o'qitish metodikasining ilmiy-nazariy asoslarini egallashga qaratilgan. Fanni o'zlashtirish davomida magistrantlar til va adabiyot o'qitish metodlarining tarixiy shakllanishi va rivojlanishi, bugungi kundagi zamonaviy yo'nalishlari bilan tanishadilar. Mazkur kurs davomida magistrant til va adabiyot o'qitish metodlari asosidagi ilmiy yondashuvlar va nazariyalarni egallaydi. Buning uchun quyidagi vazifalar belgilangan: ta'limning turli bosqichlarida, xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, shuningdek, oliy ta'limning bakalavriat bosqichida tanishiladigan adabiyot fanlarining eng muhim ilmiy-nazariy asoslari; badiiy asar tahliliga bo'lgan yondashuvlarning turlari va mohiyatini; turli xildagi adabiyot fanlarining ilmiy-nazariy, badiiy-estetik imkoniyatlarini ta'lim-tarbiya jarayoniga yo'naltirish metodikasini o'rganish hamda talabalarni hozirgi zamon til va adabiyot o'qitish metodikasidagi asosiy ilmiy-nazariy yondashuvlar bilan qurollantirishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan magistrantlarni o'qish va o'qitishga bo'lgan zmonaviy yondashuvlar hamda ularning maxsus fanlarni o'qitishdagi o'rni haqida bilimlar bilan qurollantirish *vazifalarini* bajaradi.

Fan bo'yicha magistrnar *magistrant*:

– o'quv predmetining nazariy asoslarini; badiiy asarni estetik tahlil qilish va baholash mezonlarini; adabiyot o'qitishda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini o'stirishning shakl va usullarini; dars jarayoniga qo'shimcha adabiyotlarni, yangi axborot hamda turli pedagogik texnologiyalarni

jalb qila olishni, mutaxassislik fanlariga oid o'ziga xosliklar mavjudligini bilish va ularga ta'lim jarayonida alohida e'tibor berish; har bir fanga oid xususiyatlarning qator ichki va tashqi omillarga bog'liqligini, til o'qitish nazariyalarini; metod va postmetod tushunchalarini, postmetod ta'lim tamoyillarini, til o'qitish strategiyalarini, til o'qitish jarayoniga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillar haqida *tasavvurga ega bo'lishi*, (bilim)

– o'zbek tili va adabiyoti turkumidagi fanlarni o'qitish bo'yicha oliy akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, shuningdek, oliy ta'limning bakalavriat bosqichi mohiyati va prinsiplarini o'zlashtirishi; o'quv qurollarining mavjudligiga qarab usullar tanlay olishi; badiiy asarni mustaqil tahlil qila bilishi; olingan nazariy bilimlari asosida til ta'limini rejalashtirish, samarali dars tashkil etish, o'quvchining bilim va ko'nikmalarini adekvat baholay olish va unga mos ravishda o'qitish strategiyalarini *bilishi va ulardan foydalana olishi* (ko'nikma)

– magistrant ta'limning turli bosqichlarida mazkur fan yuzasidan namunalari dars o'tish, turli tadbirlarni o'tkaza olish, zamon talabidagi darslarni tashkil qila olish, shuningdek, ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab ta'lim-tarbiyaning metod va usullarini amaliyotga tatbiq eta olish, shuningdek, yoshlarni adabiyotshunoslik sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarga yo'naltira bilish hamda til o'qitish nazariyalarini va metodlarini tanqidiy tahlil qila olish, til ta'limi jarayoniga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillarning ta'sirini baholay olish va shu asosda samarali ta'limni rejalashtirish, o'quvchining bilimini adekvat baholash *ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim*.(malaka)

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-mavzu. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasining ilmiy-nazariy asoslari va uning tanqidiy tahlili

“Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi” fan sifatida. Uning mazmun qamrovi. Maxsus fanlarini o'qitishga oid metodlar tavsifi va tasnifi. Ta'lim texnologiyalari hamda o'qitish metodlarining o'zaro munosabatlari. Adabiyotshunoslikka oid maxsus fanlarni ta'limning turlitizimida o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari. Fanni o'qitishda tanqidiy yondashuv.

2-mavzu. Milliy va xorij adabiy ta'limi metodikasining qiyosiy tahlili.

Milliy va jahon adabiy ta'limidagi ilg'or tajribalar. Sharq va G'arb adabiy ta'limiga xos xususiyatlar, adabiyotiga xos muhim ijtimoiy hodisalar – tarixiy, sotsial, madaniy kontekstda. Turli xalqlar adabiyotining milliy va madaniy xususiyatlari. Muayyan adabiy oqimga mansub yozuvchilar asarlari ijodini o'rganish prinsiplari va metodlari. Umumjahon adabiy-tarixiy muammolarni yoritish va qiyoslash, adabiy jarayondai o'zaro aloqalarni ko'rsatish milliy adabiyotni jahon adabiyoti bilan o'zaro bog'liqlikda o'rgatish masalalari.

3-mavzu. Badiiy matn tahlilida zamonaviy yondashuvlar

Badiiy asar tahlilining yetakchi tamoyillari va bosqichlari. Mavzu va muammoning tahlil yo'nalishini belgilashdagi o'rni. Badiiy tahlilda shakl va mazmun mutanosibli. Tahlilda obyekt va subyekt munosabati. Badiiy asarning ilmiy va o'quv tahlili. Tahlilda ilmiy maktablar.

4-mavzu. Govard Gardnerning “Turfa zakovatlar” nazariyasi va uning ta'lim jarayonlariga tadbiqu

Adabiyot o'qitishning pedagogik-psixologik asoslari. G.Gardnerning intellekt ko'p turliligi nazariyalari. G.Gardnerning har bir odamning turli darajada ifodalangan kamida sakkiz tipdagi intellektga egaligi haqidagi “Turfa zakovatlar” nazariyasi: 1. Verbal-lingvistik intellekt. 2. Mantiqiy-matematik intellekt. 3. Vizual-fazoviy intellekt. 4. Motor-harakatli intellekt. 5. Musiqiy-ritmik intellekt. 6. Shaxslararo intellekt. 7. Ichki shaxsiy intellekt. 8. Tabiatshunos intellekt.

5-mavzu. Adabiy ta'limda Forgan nazariyasi

Nemis olimi Forgan nazariyasining xos xususiyatlari va uning milliy adabiy ta'limga tadbiqui masalasi. Forganning Blum taksonomiyasi haqidagi qarshlari va uning qiyosiy tahlili. Forgan qarashlarining adabiy ta'lim rivojidadagi o'rni va ahamiyati.

6-mavzu. Til o'qitish nazariyalari

Til o'qitish va til o'qitish malakasining o'zaro munosabatidagi konsepsiyalar. Ilmiy-tadqiqiy konsepsiya. Nazariy-falsafiy konsepsiya. Qadriyatlariga asoslangan konsepsiya. Badiiy mahorat konsepsiyasi.

7-mavzu. Til o'qitish metodlarining tanqidiy tahlili

Til o'qitish metodlarining qisqacha tarixi va bugungi kundagi yondashuvlar. Audiolingval yondashuv. Kommunikativ yondashuv. Metodlarning bir-biridan farqi. Metod tushunchasining cheklanganligi. Tilga asoslangan metodlar. O'rganuvchiga asoslangan metodlar. O'rganishga asoslangan metodlar.

8-mavzu. “Postmetod” ta'lim tushunchasi va uning tamoyillari

Postmetod yondashuvining alternativ metodga emas, metodga alternativ yo'llarga asoslanishi. O'qitish nazariyasi va amaliyotiga metodlar asosidagi yondashuv va postmetod yondashuvning farqi. Postmetod ta'lim tamoyillari.

9-mavzu. O'rganish imkoniyatlari va strategiyalari

O'quv rejalari va dasturlarining cheklanganligi. O'qituvchi va o'quvchining roli. Dars davomida va darsdan tashqarida o'rganish imkoniyatlari. O'rganish imkoniyatlarini oshiruvchi makrostrategiyalar.

10-mavzu. Ta'lim aktlari monitoringi

Dars kuzatish turlari. Natijaga asoslangan modellar. Jarayonga asoslangan modellar. O'z-o'zini nazorat qilish. M&M (macrostrategies/mismatch observational scheme) kuzatuv sxemasi.

IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlardan kutilgan natijalarga erishish uchun o'qituvchi-professorlar tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Talabalar maxsus fanlarni o'qitish metodikasini amaliy jarayonlar bilan aloqadorlikda o'rganadilar. Xorij olimlarining mazkur fanga aloqador videodarslari, interv'yulari orqali fanda beliglangan bilim va ko'nikmalarini xalqaro standartlarda rivojlantirish imkoniga ega bo'ladilar.

Amaliy mashg'uslotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Adabiyot o'qitishning nazariy va pedagogik asoslari.
2. Badiiy matn tahlilida tanqidiy tafakkurni rivojlantirish strategiyalari.
3. Adabiyot ta'limida integratsiya.
4. Badiiy asar tahlilida kitobxon javobi nazariyasi.
5. Badiiy matn tahliliga yondashuvlar: o'qishdan oldin, o'qish davomida va o'qishdan keyingi faoliyat.
6. Matn mutolaasi. "Turfa zakovatlar" nazariyasi asosidagi yondashuvlar.
7. Dasturlar yaratish metodikasi.
8. Motivatsiyaning ayrim nazariy asoslari. Ta'limda motivatsiyaning o'rni va ahamiyati.
9. Milliy ta'lim rivojida jahon standartlari.
10. Adabiy ta'limga ilmiy metodik yondashuv. Taqrizlar, ilmiy maqolalar yozish amaliyoti.
11. Til o'qitishga turli nazariy yondashuvlar
12. Til o'qitish metodlariga tanqidiy yondashuv
13. Til o'qitish strategiyalari va postmetod ta'lim
14. Til ta'limida o'rganish imkoniyatlarini kengaytirish strategiyasi
15. Til ta'limida perseptual nomuvofiqliklarni kamaytirish
16. Lingvistik bilimni kontekstda berish

17. O'qish, yozish, tinglash va gapirish malakalarini shakllantirish
18. Til ta'limi va til standarti masalasi
19. Til ta'limida o'quvchining imkoniyatlari va "yaxshi o'quvchi" tushunchasi
20. Ta'lim aktlarini nazorat qilish va baholash

V. Mustaqil ta'lim

1. Adabiyot o'qitish strategiyalari. Samarali o'qitish strategiyasi.
2. Adabiyot fanlarini o'qitishda personal yondashuv (personal approach) tajribasi.
3. Adabiyot ta'limida an'anaviy va noan'anviy yondashuvlar.
4. Milliy va jahon adabiy ta'limi. Umumiylik va xususiylik masalalari.
5. Adabiy ta'limga ilmiy metodik yondashuv. Taqrizlar, ilmiy maqolalar yozish amaliyoti.
6. DTS lar asosidagi dasturlarning tanqidiy tahlili.
7. Til o'qitish darslarida o'rganuvchining mustaqilligini qo'llab-quvvatlash.
8. Til malakalari integratsiyasi.
9. Umumiy lisoniy malaka va ijtimoiy xoslangan lisoniy malaka.
10. Lisoniy malakani rivojlantirish makrostrategiyalari.

VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. Kumaravadivelu, B. Beyond Methods: Macrostrategies for Language Teaching. Yale University Press. 2003.
2. To'xliyev B. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. –T.: 2008.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni.–T.:
3. Methodology in language teaching an anthology of current practice. Jack C Richards and Willy A. Renandya (Eds). Cambridge University Press. 2003.
4. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy- nazariy asoslari. –T.: O'qituvchi, 1996.

Internet saytlari

1. www.ZivoNet
2. www.nuqf.intal.uz
3. www.ziyouz.com
4. www.ref.uz
5. <http://www.gov.uz/> AlisherNavoiynomidagi TDO·TAU sayti.
6. <http://www.pedagog.uz/> Pedagogikamuassasariportali.
7. www.tdpu.uz
8. www.pedagog.uz
9. www.nutq.intal.uz
10. <http://www.multimedia.uz>
11. www.tilvaadabiyot.uz e-mail: til_adabiyot@umail.uz
12. www.lex.uz

uz. Tillyayeva
Shukrova

